

**BOBUR -XVI ASR BUNYODKORI**

*Ilmiy rahbar: Sultonova Mahfuza, ADU, O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi
Abdujalilova Marjona Avazbek qizi
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi
Andijon davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asr bunyodkori Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, shaxsiyati, harbiy salohiyati, davlat boshqaruvidagi faoliyati va bunyodkorlik ishlari yoritilgan. Maqolada Boburning markazlashgan davlat tuzishda xizmatlari, Boburiylar sulolasiga asos solishi, boshqaruv tizimi, harbiy islohotlari hamda ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Asosiy manba sifatida “Boburnoma” asaridagi tarixiy ma’lumotlardan keng foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Boburnoma, siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi Hindistonda boburiylar saltanati, bunyodkorlik ishlari harbiy salohiyati.

XVI asr Markaziy osiyoda va Hindistonda siyosiy ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar davri edi. Shu davrda Zahiriddin Muhammad Bobur bir fotih sifatida emas balki shu yurtlar obodonchiligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli davlat raxbari sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatadi. Fath etgan o‘lkalari manfaatlarini yo‘lida odilona va oqilona ish tutgan. Bobur nafaqat hindistonni zabt etib yangi davlat barpo etdi balki yangi davlat madaniyati, adabiyoti va ilm fan rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Shu bois Buyuk sarkarda XVI asr bunyodkori sifatida tarix zarvarolarida o‘chmas iz qoldirgan .

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yili 14-fevralda hozirgi O‘zbekiston hududidagi Andijon shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hukmdori bo‘lib Temuriylar sulolasidan edi. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim esa Chig‘atoyxonlari avlodidan Toshkent hokimi Yunusxonning qizi. Boburning yoshligi Andijon va Axi viloyatlarida o‘tgan. Bobur barcha temuriy shaxzodalar singari maxsus tarbiyachilar yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta‘lim, fiqh ilmi, arab tili va fors tillarini o‘rgangan. Bobur otasi yo‘lidan borib mashhur sufiy Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida ulg‘ayadi. U dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” yani “ sher ” tahalusini oladi .

U harbiy san‘atni to‘la egallagan o‘z zamonasining mashhur lashkarboshchilaridan biri bo‘lgan. Shu bilan birga u e‘tiqodi mustahkam harbiy qobiliyatga ega tadbirkor ehtiyotkor va epchil sarkarda bo‘lgan. Boburning jang maydonidagi g‘alabalarining



Learning and Sustainable Innovation

taminlanish omillaridan biri razvetka xizmatidan foydalanish qobiliyati minglab askarlarni o'lim balosidan asrashda urushni o'z foyidasiga hal qilishda, qolaversa atrofdagi kishilarni ruhiyati, shaxsiyatini yanada yaxshiroq anglashda dushman niyyatini sir asroridan avvalroq voqif bo'lishga Boburga qo'l kelgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asrda yirik va markazlashgan davlat barpo etgan buyuk davlat arbobi hisoblanadi. U o'zining "Boburnoma" asarida shunday yozadi: "Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafobati birlan seshanba kuni ramazon oyining beshida Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum" deb yozadi. Ammo Temuriylar Saltanatidagi ichki nizolar Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukumdorga bo'ysunishdan bosh tortishi va mustaqillika davo qilishi yosh podshohni tang axvolga soldi. Bobur o'z asarida uni ichki nizolar va xiyonat istirobga solishi va u Samarqandni tashlab chiqib ketishga majburligi haqida yozadi. Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va ichkinizolardan foydalanib G'azna va Qobulni bosib oldi. Afg'onistonni fath etgandan so'ng bu yerni o'z yurti kabi qaradi, qurilish obodonlashtirish kasbu hunar va qishloq xo'jaligi ishlarini boshlab yuboradi. "Bog'i Shahroro", Bog'i Jahonaro, O'rtabog', Bog'i vafo, va Bog'i Babur kabi bog'lar barpo qilganligi haqida Boburnomada malumotlar bor. Bobur Eron shohi Ismoil Safaviy bilan ittifoq tuzib qayta yana Samarqandga yurish qiladi ammo 1512-yil G'ijduvonda bo'lgan jangda shayboniylarga yengilib Qobulga qaytishga majbur bo'ladi. Shu voqeadan keyin Bobur Samarqand taxtidan uzil kesil umidini uzib bor e'tiborini Hindistonga qaratadi. 1526-yilda Bobur Panipat jangida Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy qo'shinlarini tor mor etib Hindistonning katta qismiga hukmronlik qila boshlaydi. Bu bilan Boburiylar sulolasiga asos solindi. U 1527-yilda Rana Sangaga qarshi Xonva jangida, 1528-yilda Chanderi jangida g'alaba qozonib Hindistonda o'z hukmronligini mustahkamlaydi. U asos solgan sulola esa Hindiston tarixidagi eng qudratli sulolalardan biriga aylanadi.

Bobur mamlakat boshqaruvida avvalo markazlashgan tizimni yo'lga qo'ygan. U muhim harbiy va ma'muriy lavozimlarga ishonchli va bilimli kishilarni tayinlaydi. Soliq tizimini tartibga solib, davlat xazinasini o'z nazorati ostiga oladi. Bu choralar davlat boshqaruvini tartibga solishni ta'minlaydi.

Bobur harbiy sohada ham muhim islohatlarni amalga oshirgan. U intizomli va zamonaviy qurollangan qo'shin tuzadi. Boburning puxta strategiyasi uning hokimyatini mustahkamlaydi. Shuningdek Bobur mahalliy aholini dini, urf odatlari va an'analariga hurmat bilan qaraydi. Bu esa unga Hindistonda tinchlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam berdi. Natijada Bobur barpo etgan davlat XVI asrda



Learning and Sustainable Innovation

kuchli siyosiy markazga aylandi. Buyuk sarkarda Bobur 1530-yil 26-dekabrda Agra shahrida vafot etdi. U dastlab Agrada dafn etilib so'ng o'z vasiyati tufayli Qobulga ko'chirilib Bog'i Bobur hududiga dafn qilinadi.

Bobur Hindistonda ham bog'lar barpo ettirgan. Bu haqda Boburnomada shunday yozadi. "Hindistonda tartib yo'q edi. Men buyerda bog'lar soldirdim, suv yo'llari qazitdim" deb aytadi. Bobur Hindistonda dehqonchilikni rivojlantirish uchun suv chiqarib moslamalarini qilganini yozadi. Sug'orishsiz bog'lar bo'lmaydi. Bobur bu ishlarni davlat rahbari sifatida yo'lga qo'ygan. "Agra suvsiz va g'amgin joy edi Men uni bog'lar bilan ziynatladim" deb yozadi Boburnoma asarida. Yana shuni takidlab o'tish joizki Sharofiddin bobokolonimiz ulkan imoratlar qurdirganda turli mamlakatlardan ikki yuz sangtaroshlar kelgan ekanligini, Pirimqul Qodirovni "Yulduzli tunlar" asarida ham bilib olishimiz mumkin bu malumotlarni.

Bobur buyuk podshoh mumtoz shoir nazaryotchi adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos hayvonat va nabotot olamining bilimdoni sifatida faoliyat yuritgan. Birgina "Boburnoma"da uning 20 dan ortiq sohalarga qiziqqani yaqqol misol "Boburnoma" asari XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari hayoti haqidagi bebaho tarixiy ma'lumotlar manbayi hisoblanadi. Bobur ilm-fan san'at ahliga homiylik qilgan olim shoirlarni qo'llab quvvatlashi orqali u XVI asrda madaniyati muhit rivojiga katta hissa qo'shgan. Shu sababli Bobur merosi nafaqat o'z davri balki keyingi avlod uchun ham bebaho hisoblanadi.

Xulosa;

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asr tarixida nafaqat buyuk sarkarda, balki bunyodkor va adolatparvar davlat arbobi sifatida alohida o'rin egallaydi. U murakkab siyosiy sharoitlarda yashab, qat'iyat, aql-zakovat va uzoqni ko'ra bilish orqali markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. Bobur davlat boshqaruvida tartib-intizomni yo'lga qo'yib, harbiy, ma'muriy va iqtisodiy sohalarda muhim islohotlar amalga oshirdi. Mazkur maqola hozirgi zamon uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda Boburning adolatli boshqaruv, bunyodkorlik, bag'rikenglik va ilm-fanga e'tibor kabi qarashlari bugungi davlat boshqaruvi va jamiyat rivoji uchun ibrat bo'la olishi ko'rsatib berilgan. Bobur shaxsini o'rganish hozirgi yoshlar qalbida vatanparvarlik, mas'uliyat va tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ham Prezidentimiz ta'kidlaganidek, buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy merosini chuqur o'rganish va undan ibrat olish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizbor-yo'g'i 47 yil umr kechirdi. Shu qisqa vaqt davomida u inson aqli bovar etmaydigan qanday buyuk ishlarni amalga oshirgani,



Learning and Sustainable Innovation

qanday me'moriy obidalar, bog'u rog'lar barpo etib, o'zidan o'chmas nom qoldirib ketgani ham barchamiz uchun yuksak o'rnak namunasidir. Bobur Mirzo – Temuriylar Renessansining munosib davomchisi, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot, iste'dod homiysi bo'lgan buyuk shaxsdir. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatida yangi barpo etilgan Bobur shahrida o'tkazilgan tantanali marosimidagi nutqidan (15.04.2025yil)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. -Toshkent:Sharq 2019
2. Hasanov S. *Temuriylar davri madaniyati va bunyodkorlik ishlari*. -Toshkent: Fan, 2005
3. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Bobur" maqolasi*. -Toshkent, 2002
4. Qodir P. *Yulduzli tunlar (roman)*. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti - matbaa ijodiy uyi, 2018.